

UZBEKISTON RESPUBLIKASI KISHLOK VA SUV XUJALIGI VAZIRLIGI
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«Gidromelioratsiya»
fakulteti

«Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish»
kafedrası

Ximoyaga ro'xsat berildi:

Kafedra mudiri

_____ prof.BARAYEV F.A.

«_____» _____ 2013 yil

Bakalavr darajasini olish uchun

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**Mavzu:. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi «O'zbekiston» SIU
suforish tarmoqlarini takomillashtirish**

Bajaruvchi:

Norbutayev Alisher

Bitiruv ishi raxbari:

Raxbar: Fulomov S.B.

Maslaxatchi

T.f. d.,prof. F.A.Barayev

Takrizchi:

Toshkent - 2013 y.

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti

Gidromelioratsiya fakulteti

Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish kafedrası

«Suʼforiladigan yerlarda meliorativ tizimlari»
bakalavriat yoʻnalishi

TASDIQLAYMAN»

Kaf. mudiri _____ F.A.Barayev
2013 y _____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BUYICHA TOPSHIRIK

Talaba Norbutayev Alishnr

**1.Bitiruv ishining mavzusi: Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi
«Oʻzbekiston» SIU suʼforish tarmoqlarini takomillashtirish**

Institut rektorining №645/t , 3.12.12y. buyruri bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati 2.01.13- 10.05.13

3.Bitiruv ishini bajarishga doir boshlangich

maʼlumotlar:

- **Xoʻjalik iqlim tabiiy sharoitlari va ishlab chikarish toʻrrisida maʼlumotlar;**
- **Mavjud irrigatsiya va melioratsiya tizimi va tuproq-meliorativ xaritalari, M: 1-10000 yoki 1-25000;**
- **Xoʻjaliye texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari;**
- **Uslubiy koʻrsatmalar.**

4. Xisoblash -tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chikiladigan masalalar ruyxati

- kirish kismi;

-umumiy kismi (xoʻjalik toʻrrisida maʼlumotlar- joylashgan oʻrni, iqlimi, tuproklari, sizot suvlari, suʼforish va zax qochirish tarmoklari va suʼforish usullari, FIK, YeFK, mavjud suʼforish meʼyorlari, yerlarning shoʻrlanish darajasi va sabablari;

- texnik kismi (loyixaviy yer fondini aniqlash, ekinlarni suʼforish rejimi va gidromodullar qiymatlarini xisoblag va grafiklarini ishlab chikish, loyixaviy irrigatsiya va melioratsiya tizimini, suʼforish usullarini xisobi, suʼforish kaallarining boʻylama kirkimlarini chizish);

- ekspluatatsiya kismi (xo'jalik uchun suvdan foydalanish rejasi ishlab chikish, tegtshli grafiklarnit chizish, limit suv sarflarini xisoblash va irrigatsiya va melioratsiya tizimlaridan foydalanish usullarini ishlab chikish).

-XFX kismi;

-Atrof muxit muxofazasiga doir tavsiyalarni ishlab chikish;

-texnik-iqtisodiy samaradorligi kismi.

-Internet ma'lumotlari;

5 Chizma ishlar ruyxati (chizmalar nomi anik kursatiladi)

Barcha demonstatsion chizmalari Prezentatsiya shaklida bajariladi.

6.Bitiruv ishi buyicha maslaxatchilar

№№	Bulim mavzusi	Maslaxatchi ukituvchilar f.i.sh.
1	Daslabki ma'lumotlar	Fulomov S.B.
2	Umumiy kismi	Fulomov S.B.
3	Texnik kismi	Fulomov S.B.
4	Ekspluaitatsiya kismi	Fulomov S.B.
5	XFX	Axmedov I.
6	Atrof muxit muxofazasi	
7	Texnik-iqtisodiy kismi	Fulomov S.B.
8	Adabiyetlar ro'yxati	Fulomov S.B.
9	Ilovalar	Fulomov S.B.

7.Bitiruv ishini bajarish rejasi

№№	Bulim mavzusi	Maslaxatchi ukituvchilar f.i.sh.	Imzo, sana va imzo	
			Topshirik berildi	Topshirik bajarildi
1	Daslabki ma'lumotlar	Fulomov S.B.	2.02.13	1.03.13
2	Umumiy kismi	Fulomov S.B.	2.03.13	15.03.13
3	Texnik kismi	Fulomov S.B.	16.03.13	1.04.13
4	Ekspluaitatsiya kismi	Fulomov S.B.	2.04.13	15.04.13
5	XFX	Axmedov I.	16.04.13	18.04.13
6	Atrof muxit muxofazasi		19.04.13	21.04.13
7	Texnik-iqtisodiy kismi	Fulomov S.B.	22.04.13	25.04.13
8	Adabiyetlar ro'yxati	Fulomov S.B.	26.04.13	26.04.13
9	Ilovalar	Fulomov S.B.	27.04.13	28.04.13

Bitiruv ishi
raxbari_____ **Fulomov**
Familiyasi, ismi, sharifi.)

S.B.

Topshirikni bajarishga
oldim_____ **Norbutayev A.**
F.i.sh. imzo

Topshirikni bajarish sanasi_____

T O P S h I R I K

- 1. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi «O'zbekiston» SIU suvoriladigan yerlarining maydoni**
- 2. Yo'nalishi Paxtachilik- fallachilik**
- 3. FIK 0,80**
- 4. FIK 0,78**
- 5. Turoqlari turlari xaritasi (SIUdan olinadi)**
- 6. Sizot suvlari va mineralizatsiyasi xaritasi (SIUdan olinadi)**

Raqbar, imzo

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti

GIDROMELIORATSIYA FAKULTETI

«Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish (GMTF) kafedrası

«Suv xo'jaligi va melioratsiya»
bakalvriat yunalishi

«Ximoyaga ruxsat etilsin

«_____»_____2013 y
«GMTF» kafedrası mudiri
prof.BARAYEV F.A

BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Mavzusi **Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi «O'zbekiston» SIU
suforish tarmoqlarini takomillashtirish**

Bajardi: _____
Raxbar: _____

Norbutayev Alisher
Fulomov S.B.

Toshkent- 2013 y

KIRISH

Prezident I.A.Karimov «Jaxon moliyaviy iktisodiy inkirozi,Uzbekiston sharoitida uni bartaraf etish yullari va choralari» asarida quyidagilarni ta'kidlab utgan: nkiroz – kutilmagan darajada jamiyatning barcha jabxalariga zarar

keltiradigan va yangicha faoliyat yuritishga undaydigan siyosiy, ijtimoiy, iktisodiy voqelikdir.

Iktisodiy inqiroz – bu iktisodiyotning davriy tebranishlaridagi o'zgarish bo'lib, ular tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi oqibatida vujudga keladi.

Moliyaviy inqiroz – bu moliyaviy nobarkarorlilik davri bo'lib, uning davomida ijtimoiy keskinlik, siyosiy risklar rivojlanishi, iktisodiy pasayish va vaqtinchalik inqiroziy xodisalar ustidan nazoratni yo'qotilishi yuzaga keladi. Shu bilan bir vaqtda jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy rivojlanishiga asos solinadigan davrdir.

Retsessiya – bu iktisodiy yuksalishning cho'kki nuqtasidan keyingi faza bo'lib, u ishlab chikarishni, iktisodiyotda o'sish sur'atlarini, birja indikslarining ommaviy pasayishi xamda ishsizlik darajasining oshishini xarakterlaydi.

Yaqin kunlarda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Respublikaning Suv resurslaridan kompleks foydalanish davlat dasturi ishlab chikish bo'yicha Vazirlar maxkamasi karori e'lon kilindi. Ushbu karorning asosiy maksadi, bashorat kilinadigan suv tankisligining o'sishini oldini olish, uning ta'sirini maksimal kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chikish va ularni zudlik bilan amalga oshirish.

Bu muammolarni ijobiy yechishda mazkur loyixada ishlab chikilgan tadbirlar o'z xissasini ko'shadi.

Akademik Kostyakov A.N.ni yozishi bo'yicha sug'oriladigan yerlar bu qishloq xo'jaligi yerlaridir. Bu yerlarda ekinlardan yuqori va barkarar xosil olish, suv bilan ta'minlanganlikni va boshqarishni, tuproq rejimida issiqlikni va ozuqaolish bilan bog'liqligi tushiniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 4,25 mln. gektar sug'oriladigan yerlarida qishloq xo'jalik maxsulotining 90% dan yuqorisi sun'iy sug'orish yordamida olinmoqda.

"Meliorativ monitoring" va "Meliorativ kadastr" tushunchasi asosida "melioratsiya" so'zi yotibdi. Melioratsiya keng ma'noda noqulay tabiiy sharoitlarni

yaxshilashni bildiradi, melioratsiya tabiiy sharoit va xodisalarni o'zgartiruvchi omillaridan biri hisoblanadi, keng ma'noda taxlil qiladigan bo'lsak, melioratsiya bu sug'orish va meliorativ xodisalarning majmuasidir. Meliorativ xolat so'zi o'rinda yerlarni meliorativ xolatini yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar tushiniladi. Bu tuproqni faol rejimida qulay xavo, tuz, ozuqaviy, kislorod va xarorat xolatini ta'minlashdir.

Monitoring- bu kuzatuvni o'tkazish, ma'lumotlarni olish, mavjud xolat taxlil qilish va tadbirlar chiqishni xolatni yaxshilash bo'yicha tadbo'z tarkibiga oladi.

Kadastr bu - shu vaqtdagi ob'ektlar (fondlar) xolatini tizimlashtirilgan xolda sonli va sifatli hisobga olishdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, meliorativ kadastr deyilganda - suv bilan ta'minlash va zax qochirish tizimlari, sug'orish fondlar melioratsiyasini tizimli ravishda sifatli va sonli hisobini olib borish tushiniladi. Suv xo'jaligi organlarini nazorati yoki to'g'ridan to'g'ri uning qo'l ostidagi suv va yer zaxiralari, kanallar, gidrotexnik inshootlar, yordamchi inshootlar va ularni joylashishi, jixozlari, ishlab-chiqarish va transportlar va ularni texnik va iqtisodiy baxolanishi va qiymati mavjud bo'lishi kerak. Meliorativ kadastr quyidagilar uchun ishlab chiqiladi:

- sug'orish yerlarida yer- suv resurslarini samarali va to'la darajada loyixalashtirish tadbirlarini to'g'ri olib borish;

- meliorativ tizimni va ularni ekspluatatsiya qilish ishlarini maxalliy organlar bilan tezkor boshqarish;

- rejali suvdan foydalanishni tashkillashtirish va o'tkazish;

- meliorativ tizimlarni tartibda saqlash, ta'mirlash ishlari tadbirlarini to'g'ri loyixalash va o'tkazish, kanal va inshootlarni qayta qurish va yaxshilash;

- yerlarni meliorativ xolatini nazorat qilish, meliorativ tadbirlarni to'g'ri loyixalash va o'tkazish.

Meliorativ kadastr asosiy va joriy bo'lishi mumkin.

Asosiy kadastr bir necha yilda bir marta o'tkaziladi (3-5 yilda) va bir vaqtning o'zida meliorativ fond va uning pulli baxolanishi xulosalanadi;

Joriy kadastr xar yili o'tkaziladi va yillik joriy o'zgarish natijalari asosiy kadastrni o'tkazish uchun tuzilgan xujjatlarda xulosalanadi.

Kadastrga barcha suv xo'jaligini nazorat qilish yoki uni tasarrufidagi organlar kiradi:

- suv resurslari va sug'orish yerlarining fondi bilan sug'orish, o'zi oqar yo'l orqali suv bilan taminlash va zax qochirish tizimi, suvlarni mashinali va boshqa yo'llar bilan yetkazish, kanallar, kollektorlar, zovurlar, gidrotexnik inshootlar, yordamchi qurilmalar;

- suv bilan taminlash va zax qochirish, sug'orish uchun foydalaniladigan ko'llar, suv omborlari, karizlar, kuduklar, kalitlar;

- suv bilan ta'minlash va zax qochirishda, sug'orishda qo'llaniladigan nasosli va boshqa suv ko'tarish qurilmalari;

- sug'orish yerlarida va zax qochirish tizimlarida qirg'oklarni mustaxkamlash, marzalash, ximoyalash, inshoot va sug'orish kanallarini boshqarish, suv bilan taminlash;

- kanallar va sug'orish manbalarida yoki suv bilan taminlash va zax qochirishda gidrokuchlantiruvchi qurilmalar;

- yordamchi inshootlar, binolar va boshqa qurilma va jixozlar.

Asosiy kadastr bo'yicha ishlar tizim va inshootlarni pasportizatsiya xujjatlarini bir vaqtda yuritilishi, shuningdek irrigatsiya va melioratsiya tizimlaridagi xarita rejalarini o'zgarishi yo'li bilan yuritiladi.

Qurilish yakunlangach, qayta qurilgandan so'ng xar bir ob'ektning xujjatlari bilan birga, bir vaqtning o'zida, ob'ektni foydalanishga topshirish bo'yicha aktlar ilova qilinib tuziladi va foydalanadigan tashkilotga pasportlari va jamlangan vedomostlar, foydalanishga topshiriladigan ob'ektlar bo'yicha suvdan foydalanish xisobi yuritilgan kartochkalar va grafik xujjatlar (kartalar va sxemalar) topshiriladi. Shu barcha materiallarni tavsiya qilinmasa foydalanish obektlarini qabul qilish taqiqlanadi.

Kadastrning asosiy xujjatlari pasportlari, pasportli vedomostlari, xisob olib borilgan kartochkalar, sxema yoki kartochkalar xisoblanadi.

Pasportlar xar bir irrigatsiya boshqarmasi tizimlari, suvdan foydalanish assosiativasi va fermer xo'jaliklari, gidrotexnik inshootlar va suv sarfi 1 kub. m/s dan oshmagan kanallar, telefonli va boshqa aloqa liniyalari, fuqaro binolari, nasos stansiyalari, suv omborlari, gidro kuchaytiruvchi qurilmalar uchun; Pasport vedomostlari- mayda ob'ektlar, gidrotexnik inshootlar va suv sarfi 1 kub. m/s dan oshmagan kanallar, kalitlar, xavzalar, chig'irli o'rnatgichlar, suv o'lchash qurilmalari, kuzatish quduqlari va boshqalar uchun tuziladi.

Xar bir fermer, dexqon xo'jaliklari uchun shu xo'jaliklarni meliorativ bog'liqligini ifodalovchi xisobi yuritilgan kartochkalar tuziladi.

Kadastrni yakuniy (jamlamali) xujjatlari bo'lib jamlamali vedomostlar, kadastr - pasportlarini tuzishga asoslangan boshlang'ich xujjatlar, pasportli vedomostlar va xisobi yuritilgan kartochkalar xisoblanadi.

Kadastrni o'tkazishda quyidagi suv xo'jaligi xaritalari tuziladi:

- 1) aloxida fermer va dexkon xo'jaliklarining irrigatsiya va meliorativ tizimlari tarxi;
- 2) suvdan foydalanuvchilar uyushmasi xaritasi yoki tarxi;
- 3) irrigatsiya tizimi boshqarmalari xaritasi yoki tarxi;
- 4) irrigatsiya tizimi xavza boshqarmalari xaritalari;
- 5) BVO Sirdaryo va Amudaryo xaritalari..

Aloxida fermer va dexqon xo'jaliklari uchun xarita va sxemalarni yer tuzish tashkilotlari, boshqa xaritalarni suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan tayyorlanadi.

Suv xo'jalik tizimi xaritasi va tasvirini tuzishda asos tariqasida ularga yaqin aerokosmik va aerotasvir masshtab bo'yicha, rejali- kartografik materiallar, shuningdek kadastr materiallari bo'yicha tuzatilgan va to'ldirilgan mavjud irrigatsiya xaritalaridan foydalanish kerak.

Asosiy kadastrning ishlari davlat moliyalashtirish xisobidan olib boriladi. Joriy kadastr sug'orish yeri va SIU miqyosidagi fermer va dexqon xo'jaliklari xisobidan olib boriladi, yuqorisi - davlat mablag'i xisobidan olib boriladi.

Kadastr xujjatlari faqat xizmatli foydalanish maqsadiga mo'ljallangan.

Irrigatsiya va meliorativ tizimlaridan foydalanish mobaynida meliorativ monitoring va kadastr bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib boriladi.

Irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini tadqiqotlari aloxida kanallar, gidrotexnik inshootlar, ularning uchastkalari va qismlari, ularning ish sharoitlarini o'rganish va aniqlash maqsadida ishning yaxshilaniishi uchun tadbirlarni tashkillashtirish, yangi zamonaviy inshootlar konstruksiyasini ishlab chiqish, shuningdek qabul qilinayotgan xisobli formula va koeffitsientlarni to'g'riligini tekshirish va aniqlash maqsadida olib borilmoqda.


Irrigatsiya tizimlari xavza boshkarmalari tomonidan SIU'larga va fermer xujaliklariga belgilangan «limit» suv sarflarini tugri aniklash va taksimlab berish jarayonini takomillashtirish uta muxim muammolaridan biridir. Xozirgi davrda suvdan foydalanish rejalarini tuzshda SIU'lar va fermerlar, 1924 yillarda prof.Yanishevskiy N.A. tomonidan yaratilgan usulidan foydalanishmokdalar Ma'lumki, bu usuldan fodalaniishi uchun sugoriladigan yer maydoi eng kamida almashlab ekiladigan massiv maydoniga teng bulishi shart.gan yerlarni uchun foydalanishi muljallangan izot suvlari satxi va sugorish tarmoklarining foydali ish koefitsiyentlari nofakat yillar,balki bir yilning ichida sezilarli darajada uzgaradi.

Xanuzgacha kelib, aksariyat SIU va boshka suvdan foydalanuvchilarda suv mikdorini ulchab beradigan ishonchli,arzon va ekspluatatsiyada sodda vosita, jixozlari urnatilmagan.

Yukoridagilarni xisobga olib, **Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi «O'zbekiston» SIU suvorish tarmoklarini takomillashtirish** suvoriladigan yerlarini ekologik meliorativ monitoringi asosida ularni yaxshilash, sugorish tarmoklarini novdan xamda yumshok sugorish kuvurlarini kullashga muljallangan malakaviy bitiruv ishi dolzarb.

1-CHI BOB. IKLIM-TABIY SHAROITLAR.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida, Qashqadaryo daryosining vodiysida joylashgan. Viloyat ma'muriy jihatdan farbdan Buxoro viloyati, shimoldan Samarqand viloyati, sharqdan Tojikiston Respublikasi va Surxandaryo viloyati, janubdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaralanadi. Viloyat xududiy jihatdan 13 ma'muriy tumanga bulinadi,



Geografik nuqtai-nazaridan viloyat ikki qarama-qarshi mintaqaga bo'linadi:

1. Qashqadaryo daryosining pastki dasht mintaqasi.
 2. Qashqadaryo daryosining yuqori to'f oldi va to'f mintaqasiga.
- Kursatilgan mintaqalar o'zaro yo'ningarchilik miqdori, xavo xarorati va namligi bir biridan keskin farqi bilan ajralib turadi. Viloyat iqlimi keskin uzgaruvchandir, ya'ni kishi sovuk, yozi issikdir.

Viloyatning asosiy suv arteriyasi xisoblangan Qashqadaryo daryosi viloyatni ikki kismga bo'lib o'tadi. Asosiy suv manbasi bo'lib Qashqadaryo, Oqsuvdaryo, Yakkaboydaryo, Uradaryo va Amudaryoning suvini olayotgan Qarshi va Mirishkor bosh kanallari xisoblanadi.

Xozirgi vaqtda viloyat xududida Chimkurgon, Pachkamar, Langar, Talimarjon va Xisorak suv omborlari va bir kancha sel suvlarini tuplaydigan suv xavzalari mavjuddir.

YER FONDI VA UNDAN FOYDALANISH

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer fondi 2007 yil 1 yanvar ma'lumotiga asosan 2472881 gektarni tashkil etadi, shundan suvoriladigan yer maydoni 514140 gektardir.

SUV OLISH VA UNDAN FOYDALANISH.

Qashqadaryo viloyatida suvorish manbasi bo'lib Qashqadaryo, Oqsuvdaryo va Amudaryodan suv oladigan Qarshi va Mirishkor bosh kanallari, shuningdek Eskianxor kanali, Chimkurgon suv ombori va Talimarjon suv omborlari xisoblanadi.

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasining suvdan foydalanish bulimining ma'lumotiga asosan 2010 yil davomida barcha suv

manbalaridan 4930,0 mln.mz suv olish muljallangan bo'lib, amalda 4336,26 mln.mz suv olindi.

YeRLARNING GIDROGEOLOGIK-MELIORATIV ҲOLATI

Gidrogeologiya - meliorativ ekspeditsiyasi geologik jixatdan polezoy va meza-kaynazoy chukindi kobigiga mansub qatlamida faoliyat kursatadi. Asosan turtlamchi davr yotkiziklari qatlamida ish olib boriladi.

Turtlamchi davr yotkiziklari kelib chiqishi jixatdan kontinental bo'lib, Qashqadaryo xavzasining xamma joylarida mavjud. Yotkiziklarning kalinligi janubiy-qarbdan sharkka va shimoliy sharkka tomon kalinlashib borib 250-300 m gacha yetadi.

Turtlamchi davr yotkiziklarini o'rganish bilan shugullangan qator olimlarning fikricha turtlamchi davr yotkiziklarini asosan Azkamar, Karnab, Sukayta va Amudaryo komplekslariga bo'lib o'rganish mumkin.

Azkamar kompleksi yotkiziklari Q_1 nisbatan kadimiy bo'lib, Xisor to'rt tizmalarining janubiy-qarbi, Tanxoz va Langar daryolarining vodiysida neogen davri yemirilgan yotkiziklarining sirtida, asosan konglomeratlar tarzida uchraydi.

Gidrogeologiya nuktai nazaridan boshqarmaning ish faoliyati xududi Qashqadaryo artizian xavzasiga joylashgan bo'lib, yer osti suvlaring paydo bo'lishi, regionning geologik tuzilishi, yerning reliefi, ob-xavo sharoiti, gidrografik tarmoqlari va kandaydir darajada kishilarning ishlab chiqarish faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Qashqadaryo artezian xavzasida qator suvli kompleks va qatlamlar bo'lishiga qaramasdan boshqarma faoliyati neogen, turtlamchi davr



Ўрта қумок, ўртача шўрланган, сизот сувлари 2-3
чуқурликда, минерализацияси 3-5г/л

Енгил қумлок, кам шўрланган, сизот сувлари
чуқурлиги 1-2 м, сизот сувлари минерализацияси 3-5г/л

Rasm. SIU Tuproq-meliorativ xariasi

suvli qatlamlari bilan boʻlik boʻlganligi sababli quyida ushbu qatlamlarni qiskacha tavsifini keltiramiz.

Neogen qatlamlarida yer osti suvlari deyarli xamma joyda mavjud boʻlib, turtlamchi davr yer osti suvlari bilan uzviy gidravlik aloqada xamda birgalikda bitta suv kompleksni xosil qiladi. Qum, qumtosh, graviy va galechnik qatlamlar suvli qatlamlarni xosil qiladi.

Neogen-turtlamchi daryo yotkiziklaridagi yer osti suvlarining pezometrik satxi sharq tomondan Chirokchi tumani xududlarida yer satxidan baland boʻlib, bir necha bosimda okayotgan artezian quduqlari mavjud, farbga tomon bosim kamayib borib Qarshi, Koson tumanlarining xududlarida sizot suvlari satxi bilan baravrlashib qoladi.

Sizot suvlari graviy, qumli Amudaryo va Sukayta komplekslarida boʻlib, farbdan sharqqa tomon chukurlashib boradi.

Sizot suvlarining oqim yunalishi yerning relefi boʻyicha atrofdagi toflardan markazga tomon, markazdan esa suforish tarmoqlarining oqimi yunalishida sharqdan farbga tomon yunaladi.

YeR OSTI VA SIZOT SUVLARINING REJIMI

Suforiladigan maydonlarda suforish tarmoqlaridan suforiladigan yerlardan bo'ladigan infiltratsiya va sizot suvlarining buflanishi, drenaj orkali chikarib yuborilgan suvlar asosiy rejim xosil kiluvchi omillardan xisoblanadi.

Suforiladigan yerlarga Kitob-Shaxrisabz kotlovinasi, Qashkadaryo daryosining xozirgi terassalari, Chimkurgon suv omborlaridan sharkka va farbga Qarshi shaxrigacha, Fuzor daryosining konus-yoyilmasi, Qashkadaryo daryosining zamonaviy deltasi xamda Chim massivi kiradi.

Sizot va past bosimli suvlari satxining eng kutarilish payti suforish davri iyul oyiga, tushishi esa dekabr-yanvar oyiga to'fri kelmokda. Suv satxining o'zgarish oralifi 1 metrdan 3 metrgacha tashkil qiladi.

Sizot suvlarining kimyoviy tarkibi gidrokarbonatli, gidrokarbonat – sulfatli xamda kalsiy - magniyli bo'lib, o'rtacha 5-6 g/l, Fuzor daryosi konus - yoyilmasining yukori kismida sulfatli, magniy - kalsiyli bo'lib, 3-7g/l.

B)Daryolar konus-yoyilmalarining o'rta va quyi kismlaridagi sizot suvlarining rejimi.

Yukoridan Qashkadaryo vodiysiga tomon daryolarning konus-yoyilmalarida galichnikli,suglinkali va supesli qatlamlarida sizot suvlari rejimining o'zgarishi pastdan past bosimli suvlarning ta'sirida,suforish tarmoqlaridan bo'ladigan filtratsiya, zax kochirish tarmoqlaridan bo'ladigan buflanish natijasida sizot suvlarining rejimi xosil bo'ladi. Sizot suvlarining chuqurligi 1-3 metrdan 6-10 metrgacha, minerallashganligi esa mavsumlar oralifida kup farq kilmay, tumanlar bo'yicha farqlanadi.

Sizot suvlarining kimyoviy tarkibi sulfat-gidrokarbonat xloridlidan kalsiy natriylikicha miqdori 0,78 g/l dan 27,74 g/l gacha uchraydi.

Viloyatda jami 3063 kuzatuv punkti bo'lib, 2417 yakka va 646 juft kuzatuv punktlari bor. Xisobot yilida kuzatuv kuduklaridagi suvning satxi chuqurligi 106009 marta, kudukning tubi 39279 marta ulchandi. Sizot suvlarining chuqurligi 2 metrgacha bo'lgan yerlar 1 oktabrga 5020 gektar bo'lib, utgan yili shu paytga nisbatan 6790 gektarga kamaygan.

Xisobot yilida viloyat bo'yicha 100 ta kuzatuv kuduklari pudratchi Karshi mujassamlashgan ekspeditsiyasi tomonidan tubdan ta'mirlandi.

TUPROK SHO'RLANISHINI ANIKLASH

Suforiladigan yerlarning meliorativ xolatini aniqlashda tuproq sho'rlanishini o'rganish asosiy omillardan biri xisoblanadi. Viloyatda 2007 yil xisobot davrida ikki marotaba tuproq sho'rlanishini aniqlash uchun tadbir o'tkazildi. Aprel oyida sho'r yuvishni sifatli o'tkazilganligini tekshirish maqsadida viloyat xo'jaliklari bo'yicha 883 joyidan tuproq namunalari olinib, sho'rlanish darajasini o'zgarishi aniqlandi.

Sho'rlanish darajasini aniqlash maqsadida avgust oyida xo'jalik miroblari, fermerlar xamda Hidrogeolgiya-meliorativ ekspeditsiyasining tumanlardagi muxandis-texnik xodimlari bilan xamkorlikda suforiladigan maydonlarda «sho'rlanishni kuzatish» ya'ni «rekonossirovka» o'tkazildi.

«Sho'rlanishni kuzatish» dan maqsad sho'rlangan maydonlarni borib qurish, usimliklarni usishiga qarab xamda sho'rlanish sabablarini e'tiborga olib sho'rlanish xududini chegarasini aniqlash, shu ma'lumotlarga asoslanib tuproq olinadigan joylarni belgilashdir. Bu esa suforiladigan yer maydonlarini meliorativ xolatini aniq baxolash imkonini berdi.

Usimliklarning usish davri ya'ni, «vegetatsiya» tugagandan sung asosiy tuproqning sho'rlanish darajasini aniqlash maqsadida viloyat xo'jaliklarining 430708 gektar suforiladigan maydonning 4640 joyidan xar biri 3 ta (0-30 sm, 30-70 sm va 70-100 sm) qatlamlardan tuproq namunalari olindi.

Tuproq namunalari Hidrogeologiya-meliorativ ekspeditsiyasining kimyoviy laboratoriyasida taxlil kilindi.

Tuproq namunalarini taxlil kilishda V.D.Jurin nomli O'rta Osiyo ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli tuproq tekshirish yerlarni yuvish laboratoriyasi tomonidan tavsiya etilgan konduktometrlardan foydalanildi.

Viloyat bo'yicha 507390 gektar meliorativ nazoratdagi suvoriladigan maydondan 296,72 ming gektar kolektor-drenaj bilan ta'minlangan. Shundan yopik-yotik 80,05 ming gektar, tik burgu kuduklar maydoni 19,70 ming gektarni tashkil qiladi.

Taxlil natijalariga asosan viloyat bo'yicha sho'rlanish darajasini taksimlanishi quyidagicha:

Sho'rlanmagan	-	264710 gektar
Kuchsiz sho'rlangan	-	177690 gektar
O'rtacha sho'rlangan	-	51160 gektar
Kuchli sho'rlangan	-	13830 gektar

MELIORATIV TARMOQLARNING TEXNIK XOLATINI KUZATISH VOSITALARI .

1 yanvar 2013 yil xolati bo'yicha viloyatimizda jami 13968,60 km kollektor-drenaj tarmoqlari bo'lib, shundan 7172,13 km ochik zovur tarmoqlari va 6796,47 km yopik-yotik drenaj tarmoqlari tashkil etadi. 7172,13 km ochik zovur tarmoqlarini 69,0 km magistral, 547,40 tumanlararo, 6555,73 km xo'jaliklararo zovur tarmoqlaridir.

2010 yilda kollektor -drenaj tarmoqlarini texnik xolatini kuzatish natijasiga kura konikarsiz xolatda 117,44 km tumanlararo, 3758,63 km xo'jaliklararo va 4657,37 km yopik-yotik drenaj tarmoqlari aniqlandi.

Kollektor drenaj tarmoqlarining texnik xolatini konikarsizligiga asosiy sabab quyidagilardan iborat:

- Kollektor asosiy va yon tomonlarida kamish usishi va yillar davomida kumilishi:
- Ba'zi fermer xo'jalik raxbariyatining sovukkonligi tufayli suvorish davomida kollektorlarga okova suvlarni tashlash:
- Xar xil sabablarga kura kollektorlarga bandlar urnatish:
KDT ning suv sarfini ulchash va xisobot olish maqsadida
Gidrogeologiya - meliorativ ekspeditsiyasi tasarrufida 108 dona gidropostlar mavjud.

Viloyatimiz xududida 319 ta tik meliorativ kuduklar 19,70 ming gektar maydonga xizmat kursatadi. 2007 yilda meliorativ kuduklardan 62 dona joriy ta'mirlandi va 50 dona kapital ta'mirlandi.

KOLLEKTOR – DRENAJ TARMOKLARINI TOZALASH.

2012 yilda zovurlarni mexanizmlar bilan tozalash rejasiga asosan 1195,35 km uzunlikdagi zovurlarni tozalash, 6925 ming mZ xajmda tuproq ishlari va 1873080 ming sum belgilangan (522,35 km , 4022 ming m3 xajmda va qiymati 1005700 ming sumlik ishlar xo'jaliklararo zovurlarda va 673,0 km, 2903 ming.m3 tuproq ishlari, qiymati 867380 ming sum ichki xo'jalik zovurlarda).

Amalda 1274,09 km, 6913 ming mZ va 1606176 ming sumlik ishlar bajarildi (601,09 km , 4010 ming m3 xajm, qiymati 738796 ming sumlik xo'jaliklararo zovur tarmoqlarida va 673,0 km tozalanib, 2903 ming m3 tuproq, qiymati 867380 ming sumlik ichki xo'jalik zovur tarmoqlarida ishlar bajarildi).

Yopik-yotik drenajlarni yuvish 60,0 km ga rejalashtirilib, amalda 63,42 km bajarildi.

**2-CHI BOB. SUVDAN FOYDALANISH UYUSHMASI
GIDROMELIORATSIYA TARMOKLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA
SUVDAN SAMARALI FOYDALANISH REJASINI TUZISH VA
AMALGA OSHIRISH CHORA TADBIRLARNI ISHLAB CHIKISH**

Loyixani Karshi tumani O'zbekiston SIU misolida bajaramiz.

2.1.O'zbekiston nomli xujaligi tugrisida iktisodiy-texnik ma'lu-motlar.

O'zbekiston nomli Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU) 2005yilda tashkil etilgan. SIU ,sobik O'zbekiston shirkat xujaligi yerlarida joylashgan..

Mavjud SIU ning sugorish tarmoklari aksariatismi tuprokdan kurilgan va ularning $FIK = 0.71$ ni tashkil etadi, sugorish tarmoklari nisbiy uzunligi 50 m/ga-ga teng, mavjud kollektor-zovurlar chukurligi 2,5 m va uzunligi 15m/ga-ga teng. Sizot suvlar mineralizatsiyasi 5-8/l.



1-rasm. Suforish kanalining texnik xolati



2-rasm SIU kollektori oqava suvlari bilan to'lganligi darajasi



3-rasm. Surorish sifati (Yer yudagi eroziya, unumli qatlam yuvilib ketmoqda)

Natijada sugoriladigan yerlar meliorativ xolati quyidagicha: 35% yer maydonida sizot suvlari sathi 1.5-2.0m, 30% da bir metrdan yuqori va 35% da 2m-dan chuqur..Yani, yerlar zax va botkoklashgan, shurlanish darajasi: yengil shurlangan yerlar maydoni 40% urta va 60% kam shurlangan. Natijada kishlok xujaligi ekinlar xosildorligi past,masalan paxta buyicha 18s/ga, kuzgi bugdoy buyicha 32s/gadan kam. Ishlab chikarish norentabel xolatida. 2010 yil yakunlari buyicha paxta xosildorlik 22s/ga va galla buyicha 29s/ga-dan yuqori bulmadi.

SIU mavjud jami brutto maydoni $\Omega_{brutto} = 700\text{ga}$, $\Omega_{netto} = 500\text{ga}$. YeFK = $\Omega_{netto} / \Omega_{brutto} = 500 / 700 = 0,71$.-ga teng.

Loyixada , sugorish tarmoklari novlardan va yumishok kuvurlardan kabul etilishi rejalanganini xisobga olib,loyixaviy YeFK =0,92 ga teng kabul kilamiz natijada,loyixa amalga oshirilgan takdirda SIU kushimcha 20% yeki 300gektar sugoriladigan yer maydoniga ega bulishi mumkin.

Mavjud sugorish tarmoklarining FIK = 0,71 ga teng. Novli va yumishok kuvurli sugorish tarmoklarining FIK=0,87 ga teng kabul kiolinadi ,
(3) ,yani mavjud xolatiga nisbatan xujalikda:

$\Delta M = (FIK_{loyixa} - FIK_{mavjud}) \times M_{br} = (0,87 - 0,71) \times 3700 = 850\text{kub.m/ga}$ suv tejab kolinadi.

Formulada: M_{brutto} -xujalik buyicha kishlok xujalik ekinlarining urtacha keltirilga mavsumiy sugorish mey'eri,kub.m/ga.,

$M_{brutto} = (M_{paxta} \times \alpha_{paxta} + M_{bugdoy} \times \alpha_{bugdoy} + M_{boshka} \times \alpha_{boshka} + M_{takroriy}) / 100 \times \eta =$
 $2900 \times 0,428 + 900 \times 0,30 + 3800 \times 0,26) / 100 \times 0,71 = 3700\text{kub.m/ga}.$

Fermer xujaliklari suv iste'molchilar uyushmasi mavjud sugorish tarmoklari va kollektor-zovurlarining texnik xolati yemonlashuvi davom etmoqda.

2.2.SIU ni tashkil etish.

Yukoridagilarni xisobga olib, birinchidan sobik O'zbekiston shirkat xujaligi yerlarida tashkil etilgan fermer xujaliklari asosida «O'zbekiston» nomli SIUsi ochildi.SIU ,Uzbekiston Kishlok va suv xujaligi vazirligi yetakchi mutaxassislari va TIMI olimlari tomonidan yaratilgan tavsiyanoma asosida,tashkil etildi:

- Suv iste'molchilari uyushmasi (keyingi urinlarda Uyushma deb yuritiladi) kayta tashkil etilayotgan kishlok xo'jaligi korxonalari xududida o'zaro ichki suv xo'jaligi munosabatlarini tartibga solib borishni ta'minlash, shuningdek suvdan foydalanuvchilar uchun konunda takiklanmagan boshka faoliyatlarni amalga oshirish maksadida tashkil kilinadi.
- Uyushma tegishli Irrigatsiya tizimi boshkarmasi bilan kelishgan xolda, tugatilayotgan xo'jalikning ichki sugorish tarmogi yoki ayrim kichik xo'jaliklararo sugorish tarmogi bo'yicha suvdan foydalanuvchilarning ta'sis yigilishi karoriga ko'ra tashkil etiladi va belgilangan tartibda maxalliy xokimiyat, Adliya va boshka organlar ro'yxatidan o'tgandan so'ng o'z faoliyatini boshlaydi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi ayrim xo'jaliklararo sugorish tarmogi bo'yicha tashkil etilganda Irrigatsiya tizimi boshkarmasi o'ziga tegishli mulkiy ulushi bilan uyushmaga ta'sischi bo'lib kiradi.
- Uyushma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi konun iujjatlariga, Ta'sis shartnomasi va Nizomiga muvofik, o'z ta'sisчилarning mulkiy ulushlari, ularning xamda xududdagi faoliyat ko'rsatayotgan boshka suvdan foydalanuvchilarning moddiy va pul mablaglari shaklidagi badallari xisobiga amalga oshiradi.

O'z faoliyatini amalga oshirishi va rivojlanishi uchun Uyushma konunda man etilmagan pul va moddiy mablaglarni xamda boshea manbalarni jalb etishi mumkin.

- Uyushmaning umumiy mulkida suv xo'jaligi ob'ektlarining kiymati aloxida ko'rsatiladi. Bu mulk xar kanday xolatda xam ta'sisichiga va boshka suvdan foydalanuvchiga kaytarilmaydi.
- Kayta tashkil etilayotgan kishlok xo'jaligi korxonasini tugatish komissiyasi tomonidan ichki suv xo'jaligi ob'ektlari va melirativ texnikalar, binolar xamda suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanishga oid boshka boshlangich mol-mulklar ro'yxati tuzilib, ular kayta baxolanadi.

Ushbu mulk yangi tashkil etilayotgan fermer va dexkon xo'jaliklariga ularning yer maydoni, tuprok ball-bonitetini inobatga olib, fakat Suvdan

foydalanuvchilar uyushmasiga ta'sischi bo'lib kirishlari uchun boshlangich mulk-ulushi sifatida taksimlanadi.

- Ta'sischi ga Uyushma a'zo bo'lishi uchun berilgan boshlangich mulkiy ulushi Uyushma tarkibidan chikkan xar kanday xolda xam kaytarib berilmaydi.

Ta'sischi bankrot bo'lib tugatilgan xolda bu mulk yangi ta'sischi ga (yer egasiga) boshlangich mulkiy ulush sifatida Uyushmaga a'zo bo'lishi uchun beriladi.

Ta'sischi o'z ixtiyori yoki Uyushma karori bilan Uyushmadan chikkanda, unga (fakat) uning badallari xisobidan shakllangan meliorativ texnika va boshka mol-mulkning tegishli kismi- pul shaklida kaytarilishi mumkin.

Ta'sischilarning mulkiy ulushlari Ta'sis shartnomasida aks ettiriladi.

- Uyushma faoliyat ko'rsatayotgan xududda uning ta'sischisi bo'lmagan suvdan foydalanuvchilarning (maktablar, maktabgacha bolalar, soglikni saklash muassasalari, yuridik shaxs makomiga ega bo'lmagan dexeon xo'jaliklari va boshkalar) suvdan va suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanish bo'yicha xukuki tuman kishlok va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan ximoya kilinadi.

- Uyushma uning suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi maktablar, maktabgacha bolalar, sojlieni saelash muassasalariga suv ta'minoti bo'yicha tuzilgan shartnoma asosida, belgilangan limitlar doirasida uning Umumiy yigilish kearori bilan to'lovlarsiz suv beradi.

- Uyushma o'zi faoliyat ko'rsatayotgan xududdagi yuridik shaxs makomiga ega bo'lmagan dexkon xo'jaliklari (shaxsiy tomorka egalari) va boshkalar suvdan foydalanuvchilar suv xamda suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanishi uchun o'zlarining Maxalla ko'mitalari yoki Fukarolar yigini orkali Uyushmaga o'z ulushlari bilan ta'sischi bo'lishlari yoki unga a'zo bo'lmay, Uyushma bilan shartnoma tuzishlari mumkin.

- Uyushma o'z xizmat ko'rsatadigan xududda yashayotgan shaxsiy tomorka yer egalariga, ular tomonidan Uyushma bilan tuzilgan shartnomaviy majburiyatlarni (axoli yashash punktlari ichidagi sugorish tarmoklarini o'z vaktida tozalash, ajratilgan suv limitidan Maxalla ko'mitasi yoki Fukarolar yigini tomonidan

o'rnatilgan navbat bilan foydalanish, suv ob'ektlaridan foydalanish tartibiga amal kilib, ularga zarar yetkazmaslik va boshka) bajarilgan xolda badallarsiz suv yetkazib beradi.

- Uyushma shaxsiy tomorka egalarining Maxalla ko'mitasi yoki Fukarolar yigini bilan suvdan va suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzadi. Ularning suvdan foydalanish rejasini ishlab chieadi va suv limitini belgilaydi.

Maxalla ko'mitasi yoki Fukarolar yigini ularga o'rnatilgan suv mikdorini suvdan foydalanish rejasi asosida, shaxsiy tomorka egalari o'rtasida navbatlab xamda maksadli foydalanishni tashkil kiladi va nazorat o'rnatadi.

- Uyushma ayrim ta'sischilarga va xududdagi boshka suvdan foydalanuvchilarga ularning iktisodiy xolatini xisobga olib, badallar to'lash bo'yicha imtiyozlar xam berilishi mumkin.

- Uyushma suvdan foydalanuvchilarga, boshka Suvdan foydalanuvchilar uyushmalariga xamda shaxslarga suv bilan ta'minlash, suv ob'ektlaridan foydalanishdan boshka xizmatlar ko'rsatishi uchun banklarda aloxida xo'jalik xisob rakamini ochishi mumkin.

Uyushmaning bu turdagi xizmatlar tarifi Uyushma umumiy yigilishida tasdiklanadi. Ushbu xizmat bo'yicha tushgan mablaglar o'rnatilgan tartibda davlat byudjetiga tegishli to'lovlarni to'lashga shuningdek, Uyushma umumiy yijilishining earori bilan uning suv xo'jaligi ob'ektlari va meliorativ texnika va boshea mulklaridan foydalanish, ularni rivojlantirish iamda o'zga maesadlarga yo'naltirilishi mumkin.

- Ta'sischilarning umumiy yijilishi- Uyushmaning oliy organi iisoblanadi.

Ta'sischilarning umumiy yijilishida 5 kishidan iborat kuzatuv Kengashi a'zolari, shu jumladan Kengash raisi, 3 kishidan iborat Taftish komissiyasi, shu jumladan uning raisi saylanadi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasining kuzatuv Kengashi raisi bir vaktning o'zida Uyushma raisi iisoblanadi.

- Uyushma o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tegishli malakali mutaxassislardan iborat Ijro organini tashkil etadi.

Ijro organi boshligi Uyushma ta'sischisi bo'lmagan, yuqori malakali va tajribali shaxslardan alternativ tanlov asosida Umumiy yigilishda saylanadi.

Ijro organi boshligi bilan Uyushma raisi o'rtasida shartnoma rasmiylashtiriladi va Uyushma raisining buyrugi chikariladi.

Uyushma nomidan moliyaviy va boshea faoliyat ko'rsatish, shartnomalar tuzish, tasdiklangan shtat jadvali doirasida tanlov asosida Ijro organiga xodimlarni ishga olish, ularni ragbatlantirish va ishdan bo'shatish xamda boshka vakolatlar beriladi.


- Uyushmaning umumiy yigilishida uning Ijro organi shtat jadvali, uyushmani saklash xamda ichki suv xo'jaligi ob'ektlarini tozalash-ta'mirlash, kayta kurish, meliorativ texnikalarni ishlatish va boshka tadbirlar turi xamda ularga ketadigan xarajatlar smetasi, ta'sischilarning va boshka suvdan foydalanuvchilarning badallar mikdori, boshka faoliyatlar bo'yicha xizmat tariflari tasdiklanadi.

